

**“O‘z kimyosanoat” AJda ijro apparatidagi bo‘sh ish o‘rinlariga
nomzodlarni ko‘rib chiqish bo‘yicha komissiya
BAYONI 6**

27.03.2023-yil

Toshkent shahri

- Komissiya raisi:** - V.Aripov – Xodimlar bilan ishlash boshqarmasi boshlig‘i
- Komissiya a‘zolari:** - O.Mirtemirov – Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens boshqarmasi,
G‘.Abdullayev – Ijro apparati kasaba uyushmasi raisi,
J.Vafojev – Yuridik boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari
- Taklif etildi:** - A.Kurbanov – Investitsiya faoliyatini istiqbolli rivojlantirish departamenti boshlig‘i,
P.Mamutov – Kimyo va gaz-kimyo texnologik klasterlari faoliyatini muvofiqlashtirish loyiha ofisi rahbari
- Komissiya kotibi:** - N.Mamedova – Xodimlar bilan ishlash boshqarmasi bosh mutaxassisi

Kun tartibi:

“O‘z kimyosanoat” AJda ijro apparatidagi quyidagi bo‘sh lavozimlarga tavsiya etilgan nomzodlarni ko‘rib chiqish to‘g‘risida:

- Kapital qurilish va loyihalashtirish guruhi bosh mutaxassis;
- Kimyo texnoparki guruhi menejeri;
- Kimyo texnoparki guruhi bosh mutaxassis.

*(V.Aripov, O.Mirtemirov, G‘.Abdullayev, A.Kurbanov,
P.Mamutov, J.Vafojev, V.Aripov)*

“O‘z kimyosanoat” AJ tomonidan 3 ta bo‘sh ish o‘rni uchun e‘lon qilingan tanlovda ishtirok etish istagini bildirgan **246 nafar** nomzodlarning hujjatlari kelib tushdi.

Jumladan:

- Kapital qurilish va loyihalashtirish guruhi bosh mutaxassis – **51 nafar**;
- Kimyo texnoparki guruhi menejeri – **109 nafar**;
- Kimyo texnoparki guruhi bosh mutaxassis – **86 nafar**.

Barcha nomzodlarning hujjatlari (rezyume) har bir lavozim uchun belgilangan malaka talablariga mosligi o‘rganib chiqilib, **9 nafar** nomzodlar tegishli bo‘linma rahbarining tavsiyasi bilan komissiyaga ko‘rib chiqish uchun taqdim etildi.

Jumladan:

- Kapital qurilish va loyihalashtirish guruhi bosh mutaxassis – **4 nafar**;
- Kimyo texnoparki guruhi menejeri – **3 nafar**;
- Kimyo texnoparki guruhi bosh mutaxassis – **2 nafar**.

Komissiya taqdim etilgan hujjatlarni o'rganib chiqib, ishtirok etgan nomzodlar bilan o'tkazilgan suhbat natijalariga ko'ra va bildirilgan tavsiyalarni inobatga olgan holda, quyidagilarni

QAROR QILADI:

1. "O'z kimyosanoat" AJning Investitsiya faoliyatini istiqbolli rivojlantirish departamenti boshlig'i A.Kurbanovning taklifini inobatga olib, quyidagi nomzodlar komissiya suhbatidan muvaffaqiyatli o'tgan deb hisoblansin:

- Mirjavxarova Xilolaxon Tursinovna – Navoiy kimyo texnoparki guruhi bosh mutaxassisi lavozimiga;

- Majidov Rustam Uktamovich – Kapital qurilish va loyihalashtirish guruhi bosh mutaxassis lavozimiga (dastavval bir oy muddatga xizmat safariga jalb qilgan holda);

- Nurmatov Shaxboz Zulxon o'g'li – Kapital qurilish va loyihalashtirish guruhi bosh mutaxassis lavozimiga tavsiya etilsin.

2. Mazkur nomzodlarni taklif etilayotgan lavozimlarga ishga qabul qilish masalasini ko'rib chiqish "O'z kimyosanoat" AJ boshqaruvi raisiga tavsiya etilsin.

3. Yuqoridagi nomzodlar boshqaruv raisi tomonidan ma'qullangan taqdirda amalda mehnat qonunchiligi talablariga rioya qilgan holda sinov muddati bilan rasmiylashtirilishi inobatga olinsin.

4. Quyidagi 3 nafar nomzodlar komissiya suhbatini haqida o'z vaqtida ogohlantirilgan bo'lsa-da, noma'lum sabablarsiz ishtirok etmaganligi sababli rad javobi berilsin.

- Shamuratov Temurbek;

- Shoniyazov Mirshod Nazarovich;

- Xikmatullayev Timur Shuxratullayevich.

5. Quyidagi nomzodlar komissiya a'zolari tomonidan berilgan savollarga qoniqarli javob bermaganligi sababli, rad javobi berilsin.

- Khamidiy Azim;

- Muminov Kozim;

- Rashidov Jasur G'ayratovich.

6. Ushbu bayonnoma nusxasi tegishli hujjatlar bilan birgalikda “O‘z kimyosanoat” AJ boshqaruvi raisiga taqdim etilsin.

7. Bayonnomaning asl nusxasi Xodimlar bilan ishlash boshqarmasida saqlanishi ta’minlansin.

Komissiya raisi



A.Aripov

Komissiya kotibi



N.Mamedova


O.Mirtemirov




G'.Abdullayev



J.Vafojev



A.Kurbanov



P.Mamutov

